

**B.B.BOLTAEV**



BUKHARA STATE  
UNIVERSITY  
SENIOR TEACHER

**THE TREND OF CREATION AND DEVELOPMENT OF THE  
MUSEUM-LABORATORY OF BUKHARA STATE  
UNIVERSITY**

**ТЕНДЕНЦИЯ СОЗДАНИЯ И РАЗВИТИЯ МУЗЕЯ-  
ЛАБОРАТОРИИ БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО  
УНИВЕРСИТЕТА**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI MUZEY-  
LABORATORIYASINING TASHKIL TOPISHI VA  
RIVOJLANISH TENDENSIYASI**

**Abstract.** This article describes the history of the museum-laboratory at Bukhara State University and its activities. In addition, the scope of work carried out in our country to support and develop the museum sector is described in detail.

**Keywords:** Virtual museum, communication, museum studies, International museums, gene fund, exhibit, multimedia, audio guide, attractive, authenticity.

**Аннотация.** В статье подробно описан объем проводимых в нашей стране работ по поддержке и развитию музейного сектора. Кроме того, рассказывается об истории создания и деятельности музея-лаборатории Бухарского государственного университета изучением источников

**Ключевые слова:** Виртуальный музей, коммуникация, музейное дело, международные музей, генный фонд, мультимедиа, аудиогид, привлекательность, подлинность.

**Annotasiya.** Ushbu maqolada yurtimizda hozirgi kecha-kunduzda muzey sohasini qullab - quvvatlash va rivojlantirish borasidagi olib borilayotgan ishlar ko'lamini Buxoro viloyatidagi oliy dargoh Buxoro davlat universiteti huzuridagi muzey-laboratoriyasining tashkil topish tarixi va uning faoliyati manbalar asosida batafsil yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Virtual muzey, kommunikasion, muzeyshunoslik, xalqaro muzeylar, genofond, eksponat, multimedia, audiogid, attraktiv, autentichnost.

### **-KIRISH (INTRODUCTION)**

Mustaqillikning ilk kunlaridanoq, yurtimiz tarixini, ko'p yillik merosini o'zida mujassam etgan muzeylarni tashkil etish bo'yicha bir qator amaliy ishlar amalga oshirildi. Mamlakatimizda yangi muzeylarning tashkil etilishi, poytaxtdagi eng yirik va nufuzli temuriylar davri tarixi, "Qatag'on qurbonlari" xotirasi, mamlakatimiz janubida joylashgan Termiz shahridagi "Arxeologiya" muzeyining

o'chilishi hukumatimiz tomonidan muzey va muzeyshunoslik sohasida nihoyatda katta ishlarning amalga oshirilishidir. Yangi muzeylarning tashkil etilishi bilan bir qatorda shu vaqtgacha ham faoliyat ko'rsatib turgan barcha katta-kichik muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash, milliy istiqlol ruhida qayta tashkil etish ularni zamon talablariga moslashtirish masalalari asosiy o'ringa ko'tarildi.

1977 yildan buyon dunyoda an'anaviy tarzda 18 may-Xalqaro muzeylar kuni sifatida nishonlanib kelmoqda. O'zbekiston ham (IKOM) ga a'zo bo'lgach, bu shodiyona ham bizning yurtimiz uchun o'zgacha bir ahamiyat kasb eta boshladi. Mustaqillik yillarida tarixiy merosimizni o'zida saqlovchi, namoish etuvchi muassasa hisoblangan muzeylar rivojiga alohida e'tibor qaratildi.

#### **-MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI (LITERATURE REVIEW)**

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardan boshlab muzey sohasini rivojlantirish va uni qo'llab quvvatlash masalasi kun tartibida asosiy o'ringa ko'tarildi. Shular qatorida oliygohlar huzuridagi muzeylar taraqqiyoti ham yosh avlodni vatanga sadoqat o'z xalqiga hurmat ilmga muhabbat ruhida tarbiyalashda asosiy o'rin egallab kelmoqda. Ushbu mavzuni yoritishda biz quyidagi mualliflarning asarlaridan foydalanib tahlil qilishga urinib ko'rdik.

Birinchi guruhga rus olimlarining asarlari: N.A.Nikishin « музей и новые технологии, на пути к музею XXI века » М. 1999.г 216-с

Ye.L.Galkina. этнографические источники в музее проблемы интерпретации. М.1998.г

Ikkinchi guruhga o'zbek olimlarining ilmiy tadqiqotlari: Azimova M. M, "Mustaqillik yillarida muzeylar faoliyati va turizm", "Buxoroni turizm chorraxasiga aylantirish imkoniyatlari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya maqolalar to'plami. 2019 yil 29 may. -Buxoro: 2019. (2-qism)

A.To'laganov, H. To'rayev. Buxoro davlat universitetining 85 yilligi muzey ko'zgasida . "Muzeyshunoslik" fanidan o'quv qo'llanma. Buxoro-2016 yil

Almeyer R. Muzey jamg'armalarini optimallashtirish, saqlash va ko'rgazmalashtirish. // Moziydan sado. 2(38) – Toshkent: 2008. B-2-3.

D.T.Kuryazova O'zbekiston moddiy madaniy merosini o'rganish, saqlash va muzeylashtirishning nazariy metodologik asoslari. Tar fan dok (DSc) diss avtoref Toshkent – 2021 81-bet.

Yuqorida qayd qilib o'tilgan ilmiy asarlar ma'lum ma'noda biz o'rganmoqchi bo'lgan mavzuni yoritishda asosiy manba bo'lib hisoblanadi.

#### **-TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METHODOLOGY)**

Tadqiqot ishi xolislik, tarixiylik, ilmiylik tamoyili, xronologik va qiyosiy tahlil usullariga tayanadi.

Muzeylar nufuzini oshirish, ularni zamonaviy talablar doirasida jihozlash, tomoshabinlarni jalb qilish uchun yangi usullarni tashkil etish, ilgari namoyish etish imkoni bo'lmagan muzey fondlaridagi buyumlarni ham namoyish etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish zarurati paydo bo'ldi. Bu uchun esa muzey xodimlari har yerda va har doim millat hamda mamlakatning genofondi bo'lmish muzeylarning ulkan imkoniyatlarini ochib bera olishlari lozim edi. Shu sababdan bilimli zukko, o'z kasbini sevadigan, vatanparvar muzey mutaxassislariga ehtiyoj kundan –kunga ortib bormoqda. Yuqori texnologiyalarni, ekspozitsiyalarni namoyish etishdan tashqari, yosh avlodni ma'nan yetuk, barkamol, vatanparvar, milliy, tarixiy an'analarga sadoqat ruhida tarbiyalashda muzeylarning o'rni beqiyosligini ham albata unutmaslik darkor. Muzey nafaqat moziy maktabi, balki tarbiya o'chog'i, madaniy-ma'rifiy maskandir. O'zlikni anglash, milliy qadriyatlarni tiklash, mafkuraviy immunitetni shakllantirishda boshqa targ'ibot vositalari qatori muzeylarning ham o'z o'rni va vazifasi bor. Muzeylar ishini takomillashtirish

jarayoniga mustaqillikning dastlabki davrlaridan qo‘l urildi. Bu xayrli ishlarning natijasi o‘laroq, muzeylar ishini qayta tashkil etish va rivojlantirish to‘g‘risida hukumat qarorlari qabul qilindi. “Muzeylar kuni”, “Muzeylar haftaligi”, “Ochiq eshiklar kuni” kabi tadbirlar mamlakatimizda muntazam o‘tkazilib kelinmoqdaki, ular chinakam ma’nodagi ommaviy bayramga aylanib ulgurdi.

Darhaqiqat, bunday yangiliklar Respublikamizning barcha oliy o‘quv yurtlari huzuridagi muzeylar uchun ham turtki bo‘ldi desak aslo xato qilmaymiz. Ko‘pgina oliy o‘quv dargohlari bugungi kunda o‘z ilmiy-amaliy muzey-laboratoriyasiga ega. Muzey darslarini tashkil qilish yoki ayrim darslarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri muzeylarda o‘tish amaliyotini joriy qilish va ommalashtirish dolzarb masalalardan biriga aylanishi kerak. Bu narsa birinchidan, muzey ishining yangi qirralarini ochishga, ikkinchidan, ta’limning noan’anaviy usullarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda muzeylarga bo‘lgan yuksak e’tibor doirasida Buxoro Davlat Universiteti huzurida ham ilmiy-amaliy muzey-laboratoriyasi tashkil etilgan edi. Bundan maqsad faqat moziyga nazar solish emas, balki muzey eksponatlari orqali ushbu ta’lim dargohining bosib o‘tgan yo‘li, ta’lim tizimining dinamik rivojlanishi, ta’limdagi an’anaviylik va zamonaviylik uyg‘unligi, kelajakka nigoh, sohada yechimini kutayotgan muammolarni ko‘rsatishdan iborat. Eksponatlarni to‘plash saqlash, o‘rganish va targ‘ib qilish kabi muzey ishining asosiy prinsiplariga amal qilgan va jahon muzeyshunosligi tajribasiga suyangan holda ishni tashkil qilish universitet muzeyi va uning jamoasi oldida turgan bosh vazifadir. Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy-amaliy muzey-laboratoriyasining muzeylarni rivojlantirish bo‘yicha e’lon qilinayotgan davlat innovasion loyihalarida muntazam qatnashib borishi ta’minlab kelinmoqda.

Buxoroda necha yillardan beri namunali davom etib kelayotgan muzey ishining tarixiy – ma’rifiy an’analari Buxoro davlat universitetining yangi tashkil etilgan muzeyida ham o‘z ifodasini topdi.

Umuman, universitetda tashkil etilgan muzey – ekspozitsiyalar ichida ushbu Ilmiy-amaliy muzey-laboratoriya uchinchisidir. Birinchi muzey-ekspozitsiya mustaqillik arafasida, ikkinchisi o‘tgan asrning 90-yillari oxirida tashkil topib, barchasi ko‘rgazma mazmuniga ega edi. Yangi ilmiy – amaliy muzey – laboratoriya esa oldingilaridan shaklan va mazmun jihatdan farq qiladi. Ushbu farqdagi dastlab ko‘zga tashlanadigan jihat - ushbu muzeyning zamoniy talablarga mos, professional darajada yaratilganligidir. Muzey ishi qoida va amaliyotida binoning muvaffaqiyatli tanlanishi muzeyning keyingi rivojini ta’minlaydi degan tushuncha mavjud. Buni Buxoro Davlat Universiteti ilmiy-amaliy muzey-laboratoriyasi misolida ko‘rish mumkin.

Bunday tadqiqot, ilmiy izlanishlarni yuqori samara berishi uchun bugungi kunda xalqaro turizmga muzeylar faoliyatini tashkil etish maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Shular qatoridagi ushbu muzey haqiqiy professional ilmiy markaz sifatida faoliyat yuritib, o‘z oldiga Buxoro davlat universiteti tarixi, uning rivojlanish bosqichlari haqidagi ma’lumotlarni jamlash, qayta ishlash va shu asosda yurtimizdagi va xorijdagi oliygohlar bilan ilmiy va madaniy aloqalarni takomillashtirishga oid tavsiyalar ishlab chiqarishni asosiy vazifa etib belgilaydi. Shunday qilib, rus olimi muzeyshunos N.A.Nikishin fikriga ko‘ra, zamonaviy ilmiy muzeylar komplekslarida bir qancha ramziy qiymatda ishlab chiqarilgan, asosan interpretasion va kommunikasion texnikalar yotadi; Ilmiy va ilmiy-targ‘ibot yo‘nalishlarida sohalar doirasida zamonaviy ko‘rinishdagi rejalar innovasiya va konsepsiyalar ko‘rinishida joriy qilina boshlandi. Bu qonuniyatlar barchasi fan, soha doirasida ilmiy asoslangan holda tajriba, ilmiy izlanishlar, falsafiy qarashlar va umumiy dunyoqarash asosida ishlab chiqiladi.

Tashkil etilayotgan Ilmiy-amaliy muzey-laboratoriya uchun tarixiy va zamonaviy eksponatlar kompleksini shakllantirish, universitet tarixini aks ettiruvchi arxiv materiallarini qidirib topish masalasi kun tartibiga qo‘yildi. Chunki oldingi ekspozitsiyalarda nodir arxiv materiallari qariyb uchramasdi. Ayniqsa, Buxoro davlat pedagogika institutini tashkil etish to‘g‘risida Respublika xalq maorifi

komitetining birlamchi buyrug'ini qidirib topish va uni ekspozitsiyaga joylashtirish dolzarb va kechiktirib bo'lmaydigan vazifa sifatida ishchi guruh zimmasiga yuklatildi. Shu maqsadda arxiv ishini puxta egallagan Buxoro davlat universiteti Tarix va madaniy meros fakulteti Jahon tarixi kafedrasida katta o'qituvchisi A. Hamroyev Toshkentga, O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxiviga jo'natildi. Sa'y-harakatlar tez orada o'z natijasini bera boshladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 2018 yil 16 fevraldagi Buxoro shahriga qilgan tashrifida viloyatda turizm sohasini yanada rivojlantirish konsepsiyasi asosida amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishar ekan. "Buxoro o'zining betakror tarixiy obidalari, osori-atiqalari, asrlar osha davom etib kelayotgan milliy hunarmandlik an'analari bilan yurtimiz turistik jozibadorligini oshirishda ulkan salohiyatga ega ekanligini"-ta'kidlab o'tdi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mustaqillik yillarida muzeylar faoliyati tubdan o'zgarib yuqori darajada o'sdi, albatta bularning barchasining zaminida ko'plab mashaqqatli mehnat yotadi. Respublikamiz muzeylari o'z yo'nalishlariga qarab xalqimiz boy madaniy merosini, uning taraqqiyot bosqichlaridagi o'rnini haqqoniy aks ettirib, zamon talablari asosida istiqbol ruhida ekspozitsiyalar yaratilishi zarurligi amalga oshirila boshlandi. Muzeylarimizdagi boy eksponatlarni, yutuqlarimizni jahon jamoatchiligiga tanitish maqsadida targ'ibot ishlarini kuchaytirish, viloyatlararo ko'rgazmalar tashkil etishga ko'maklashish;

O'zbekiston Respublikasi oliy dargohlari huzuridagi muzeylari faoliyatida namoyon bo'layotgan mazmunan va shaklan eski, qotib qolgan tasavvurlarni bartaraf etish, ushbu muzeylarda to'laqonli ish olib borish, ijtimoiy madaniyat muntazam ravishda o'zgarayotgan bir paytda muzey ishini faollashtirish hamda turli muhim nazariy va amaliy muammolarni yechish, zamonaviy muzey ishi sohasida izlanishlar olib borish, qulay konstruktiv yechimni topish va O'zbekistondagi oliy o'quv yurtlaridagi muzeylarni jahon oliygohlari muzeylari bilan har tomonlama hamkorlik qilish muzeylarga innovasion texnologiyalarni joriy etish orqali rivojlanishga erishish asosiy masala bo'lib kelmoqda. Kadrlar tayyorlash masalasiga jiddiy qarash maqsadida oliy o'quv yurtlariga muzeyshunos olimlarni jalb etib, o'qitish usullarini takomillashtirish, o'quv mashg'ulotlarini amaliy mashg'ulotlar bilan uzviy bog'lab olib borish, respublikadagi yetakchi muzeylarda muzey xodimlarining malakasini oshirish. Shu kunlarda muzeyshunos olimlarimiz respublikamizdagi muzeylar faoliyatini yanada yaxshilash niyatida muzeylarni rivojlantirishning maxsus ilmiy tamoyillarini ishlab chiqdilar. Mutaxassislar fikricha, bu borada O'zbekiston tarixi davlat muzeysi yangi ekspozitsiyasining ilmiy tamoyillari barcha muzeylar uchun namuna bo'la oladi. Hozir tamoyil va tematik-ekspozitsion rejalar ko'paytirilib, respublikamizdagi barcha muzeylarga tarqatildi. Keyingi yillar davomida muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash yuzasidan bir qator ishlar olib borildi.;

#### **- XULOSA VA TAKLIFLAR (CONCLUSION/RECOMMENDATIONS)**

Hozirgi kunda Buxoro davlat universiteti muzeysi zaxirasida saqlanayotgan jami ashyolarning jamlama katalogini tuzish nihoyasiga yetkazish. Tabiiyki, har qanday muzey o'z zaxirasini yangi topilma va zamonaviy asarlar bilan boyitib borishi. Shu ma'noda Universitet muzeylari faoliyatini yuksaltirish, ularga ilmiy-uslubiy yordam ko'rsatish tizimini takomillashtirish davr talabidir deb o'ylaymiz.

#### **FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Habibullayev N. Muzey va fan-ta'lim. / O'zbekiston muzeylari istoqbollari. – Toshkent, 2013. – B.7.

2. Almeyev R. Muzey jamg'armalarini optimallashtirish, saqlash va ko'rgazmalashtirish. // Moziydan sado. 2(38) – Toshkent: 2008. B-2-3.
3. Музей и этнология: серия электронных изданий museum pro/ отв. ред. Е.Л.Галкина, Е.Е.Кузьмина, Н.А.Никишин .-М., 1997;
4. Музей как социокультурное явления Е.М. Акулич // социологические исследование - 2004-№10-С89-92.
5. A. To'laganov, N. To'rayev. Buxoro davlat universitetining 85 yilligi muzey ko'zgasida . "Muzeyshunoslik" fanidan o'quv qo'llanma. Buxoro-2016 yil
6. Azimova M. M, "Mustaqillik yillarida muzeylar faoliyati va turizm", "Buxoroni turizm chorraxasiga aylantirish imkoniyatlari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya maqolalar to'plami. 2019 yil 29 may. -Buxoro: 2019. (2-qism)
7. O'zbekistonda turizm rivojlanishining ilk bosqichlari.//www.turizm.uz
8. Muzey va turizm rivojining yangi bosqichlari //www.muzei.uz
9. Sh.M.Mirziyayevning Buxoroga tashrifi.//www.google.com
10. D.T.Kuryazova O'zbekiston moddiy madaniy merosini o'rganish, saqlash va muzeylashtirishning nazariy metodologik asoslari. Tar Fan Dok (DSc) Diss Avtoref Toshkent – 2021 81-bet
11. Temirov F. PUBLISHING AND LIBRARY ACTIVITIES OF THE TURKESTAN JADIDS. International Journal of Intellectual and Cultural Heritage. Volume: 2 Issue: 01 | 2022
12. Temirov F. Of the journalistie work of Sadriddin Ayni Concerning Issues of Bukhara history. Irish Interdisciplinary of Science & Research (IJSR) Vol.6, Iss.1.Pages,12-17. January-March 2022
13. Boltayev, Bobir. "Respublikamiz muzeylarining taraqqiyotida zamonaviy innovatsiyalar: Qo'llanmalar asosida."ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 3.3 (2021).
14. Boltaev, B. "EDUCATIONAL METHODS AIMED AT CREATING A SENSE OF HARMONY AMONG CHILDREN IN THE ACTIVITIES OF ART CIRCLES OF ORPHANAGES." Theoretical & Applied Science 5 (2020): 780-782.
15. Boltayev B. ФРАГМЕНТЫ ИЗ ИСТОРИИ БУХАРСКОГО МУЗЕЯ-ЗАПОВЕДНИКА //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 2. – №. 2.
16. Boltayev B. Buxorolik san'atkor hayotiga bir nazar: Manba asosida //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 2. – №. 2.
17. Temirov F., Umarov B. Practical application of family, marriage and inheritance rights in bukhara emirates // Scientific progress. - 2021. - Т. 2. - №. 1. - S. 1201-1207.
18. Temirov F. Xalikova N. From the history of foreign policy and development of diplomacy in the emirates of bukhara // Scientific progress. - 2021. - Т. 2. - №. 1. - S. 1276-1282;